Samarqand viloyatining chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026-yil yanvar-sentabr dastlabki ma'lumot

I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
IV. METAMA'LUMOTLAR
V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


2026-yil 1-oktabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 10 795 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 60 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 10 735 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 37 687,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 121,4 % ni tashkil etdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 4 014,0 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,1 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 33 673,8 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 124,0 %), shundan, uyushmagan savdo tovar aylanmasi 3 328,4 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 119,5 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)

2026-yil yanvar-sentabr



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
(2024-2026 yillar yanvar-sentabr, ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-oktabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 3 379 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 49 ta, kichik korxona va mikrofirmalar soni 3 330 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2026-yilning yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 31 934,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 21,0 % ga o'sdi.


Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 16 699,3 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,8 % ni, viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 52,3 % ni tashkil etdi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi *(mlrd so'm)*



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Jomboy (5,6 m.), Urgut (178,8 %), Samarqand (157,0 %), Pastdarg'om (113,6 %) tumanlari va Samarqand shahrida (148,1 %) kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o‘sish sur’atlari *(foizda)*




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026-yil 1-oktabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 2 993 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 21 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 972 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida umum ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 26 134,9 mlrd so‘mga yetib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 21,5 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 66,8 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o‘sish sur’atlari *(foizda)*



IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLA

Ichki savdo aylanmasi

Chop etishga mas'ul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	**Bo'lim boshlig'i:** N.Abdiraimov Tel: +998712308000 (3040)	**Ijrochi:** Tel: +99866 235 14 42 e-pochta: info@samstat.uz	**Manzil:** 140100, Samarqand sh., U.Tursunov ko'chasi, 82